


ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 26 890 tani tashkil etadi, shundan 21 442 tasi yoki 79,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan 94,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 92,8 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2025	26 890	21 583	21 442
2024	28 491	23 249	23 104
2023	31 167	26 053	25 918
2022	42 774	37 421	37 242
2021	39 291	34 313	34 185

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Andijon shahrida – 26,1 foiz, Asaka – 8,2 foiz, Andijon – 8,1 foiz, Shahrixon – 6,9 foiz va Baliqchi – 6,1 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonidagi salmoqli ulushi Andijon tumanida – 84,1 foiz va 83,8 foiz, Andijon shahrida – 83,9 foiz va 83,0 foiz, Xonobod shahrida – 81,0 foiz va 80,4 foiz, Ulug'nor – 80,8 foiz va 80,3 foiz hamda Xo'jaobod – 80,3 va 79,4 foiz tumanlarga to'g'ri keldi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Oltinko'l tumani	1 431	1 133	1 126
Andijon tumani	2 191	1 843	1 837
Baliqchi tumani	1 633	1 309	1 304
Bo'ston tumani	898	712	708
Buloqboshi tumani	832	613	608
Jalolquduq tumani	1 243	944	941
Izboskan tumani	1 348	1 040	1 039
Ulug'nor tumani	870	703	699
Qo'rg'ontepa tumani	1 400	1 062	1 056
Asaka tumani	2 200	1 758	1 748
Marxamat tumani	1 196	952	943
Shahrixon tumani	1 849	1 458	1 453
Paxtaobod tumani	1 113	827	824
Xo'jaobod tumani	1 175	943	933
Andijon sh.	7 027	5 894	5 834
Xonobod sh.	484	392	389

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-iyun holatiga 30,4 foizni (37,8 foiz va 38,0 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 17,0% (21,0% va 20,9%), uchinchi o'rinda "Qurilish" 6,1% (7,5% va 7,5%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1 430	1 394	1 387
Sanoat	4 560	4 539	4 484
Qurilish	1 644	1 623	1 611
Savdo	8 165	8 162	8 144
Tashish va saqlash	761	756	745
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 292	1 290	1 288
Axborot va aloqa	418	410	409
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 153	910	909
Boshqa turlar	7 467	2 499	2 465

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra, 21 583 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 18 386 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	18 386	85,2
Xususiy korxonalar	1 773	8,2
Oilaviy korxonalar	1 213	5,6
Aksiyadorlik jamiyati	37	0,2
Boshqalar	174	0,8

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, 2025-yilning 1-iyun holatiga chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 345 ta korxonalardan 122 tasi qo'shma korxonalar va 223 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025-yilning 1-iyun holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 38 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 151 tadan 163 taga, (o'sish 12 taga), savdo sohasida 64 tadan 75 taga (o'sish 11 taga) va qurilish sohasida 18 tadan 24 taga (o'sish 6 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	345	122	223
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	18	10	8
Sanoat	163	72	91
Qurilish	24	5	19
Savdo	75	16	59
Tashish va saqlash	9	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	1	10
Axborot va aloqa	9	-	9
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	32	13	19

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 101 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 29,3 foizini tashkil etdi. Shuningdek, viloyatimiz iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (18,3%), Turkiya (15,9%), Qirg'iz Respublikasi (13,3%) va Janubiy Koreya (7,2%) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	345	122	223
Xitoy	101	26	75
Rossiya	63	30	33
Turkiya	55	14	41
Qirg'iz Respublikasi	46	12	34
Janubiy Koreya	25	16	9
Hindiston	9	4	5
Belorusiya	7	3	4
Tojikiston	6	2	4
Singapur	6	1	5
BAA	5	4	1
Qozog'iston	5	2	3
AQSH	4	2	2
Pokiston	3	2	1
Boshqalar	10	4	6

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
Z. Sidikov
74 228-29-74 (6060)

Maznil:
170100, Andijon sh.,
Milliy tiklanish ko'chasi, 36 A
